

AQSHNING VETNAMDAGI HARBIY VA SIYOSIY EKSPANSIYASI (1950-1975)

*Qurbanov Omatillo Asqarali o`g`li
Andijon davlat universiteti magistranti*

Annotatsiya: AQSh va Vietnam o`rtasidagi urush 14 yil – 1961 dan 1975 yilgacha davom etgan. Bu urush Qo'shma Shtatlar tarixidagi eng qora nuqtalardan biri, Vietnamda esa fojiali davr sanaladi. Bir tomon Vietnamning mustaqilligi uchun, ikkinchi tomon ushbu mamlakatnatni birlashtirish uchun kurashgan. Manbalardada qayd etilishicha, mazkur urushda AQSh 6 727 084 tonna bomba ishlatgan (qiyos uchun: Ikkinchi jahon urushida Germaniyaga 2 700 000 tonna bomba tashlangan).

Kalit so‘zlar: Vietnam, AQSH, urush, tarix, mustaqillik, bomba, qurol-aslaha.

Аннотация: Война между США и Вьетнамом длилась 14 лет, с 1961 по 1975 год. Эта война — одна из самых мрачных в истории США и одна из самых трагических во Вьетнаме. Одна сторона боролась за независимость Вьетнама, а другая — за объединение этой страны. По данным источников, США в этой войне использовали 6 727 084 тонны бомб (для сравнения: на Германию во время Второй мировой войны было сброшено 2 700 000 тонн бомб).

Ключевые слова: Вьетнам, США, война, история, независимость, бомба, оружие.

Annotation: The war between the United States and Vietnam lasted 14 years, from 1961 to 1975. The war is one of the darkest in U.S. history, and one of the most tragic in Vietnam. One side fought for Vietnam's independence and the other side fought for the unification of this country. According to sources, the United States used 6,727,084 tons of bombs in this war (for comparison: 2,700,000 tons of bombs were dropped on Germany during World War II).

Keywords: Vietnam, USA, war, history, independence, bomb, weapons.

KIRISH

Ikkinchi jahon urushidan keyin SSSR va AQSh dunyoning ikkita eng qudratli davlati bo`lib qoladi. Urush tugagach g`olib sifatida SSSRning obro`sni nihoyatda oshib ketadi va bu ittifoqqa dunyoda sotsializm g`oyasini kengroq yoyishga yordam beradi. O`z o`rnida AQSh ham qarab turmaydi va beg`araz yordam, imtiyozli qarz berish evaziga do`st orttiradi.

Ikki bir-biriga teskari g`oyadan birini qabul qilish qiyin bo`lgan mamlakatlarda AQSh va SSSR pachakilashib o`tirmay butun boshli davlatni ikkiga bo`lib bo`lib olishardi. Masalan, Koreya yarimoroli va Germaniyada shunday bo`lgandi.

Germaniyada GFR AQSh va G`arb dunyosining, GDR esa SSSR ta'sir doirasiga tushgan bo`lsa, Koreya yarimorolida Janubiy Koreya G`arb bilan, Koreya Xalq Demokratik Respublikasi (Shimoliy Koreya) esa sotsializm yo`lidan ketadi. Kunlarning birida navbat Vietnamga keladi.

Vietnamni Ikkinchi jahon urushi vaqtida Yaponiya bosib olgan, ungacha esa Janubiy-sharqiy Osiyodagi ushbu mamlakat Fransiya mustamlakasi edi. Yaponiya Vietnamni bosib olgach, nguyenlar sulolasining so`nggi imperatori Bao Day-de mamlakatning «qo`g`irchoq rahbari» etib tayinlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

1945 yil 13 avgustida yaponlar Vietnamdan quviladi. Kommunistik partiya rahnamosi Xo Shi Min vaqtinchalik davlat rahbari etib sayланади.

Mamlakatda boshlangan inqilob natijasida bosqinchilar quviladi, Bao Day-denning hukmronligi tugatiladi. 1945 yil 2 sentyabrida Xo Shi Min 500 ming namoyishchi oldida mustaqillik deklaratsiyasi va Vietnam

Demokratik Respublikasi tuzilganini e'lon qiladi. 1946 yilda VDR Milliy yig'ini tomonidan mamlakat konstitutsiyasi qabul qilinadi¹.

1946 yil Vietnam shimolini AQSh ko'magiga tayanadigan xitoylik sarkarda Chan Kayshi, janubini esa VDRni tan olmagan Britaniya qo'shinlari egallab oladi. Bu tomonda Fransiya ham o'zining sobiq mustamlakasi Vietnamdan umidini uzmagandi. Ana shunday holatda chorasiz qolgan Xo Shi Min Fransiya bilan kelishuvga erishadi. Ushbu kelishuvga ko'ra, Vietnam mustaqillikdan voz kechadi va unga Fransiya tarkibida kengaytirilgan muxtoriyat beriladi.

O'sha paytda bu kelishuv amalga oshmaydi va urushdan qochishning iloji bo'lmay qoladi. Xo Shi Min fransuzlar bilan kelishuvga erishgan bo'lsa-da, Vietnamda Fransiyaga qarshi ko'plab guruhlarni birlashtirgan «Vietnam milliy ittifoqi» ham tuzilgan edi.

1961 yil Janubiy Vietnamga AQSh qurolli kuchlariga tegishli ikkita vertolyot rotasi kiritiladi. Shundan so'ng Janubiy Vietnam armiyasiga harbiy ta'lif berish uchun AQShdan ko'plab harbiy mutaxassislar yuboriladi.

O'sha paytda Kennedy administratsiyasi Janubiy Vietnamdagi ittifoqchilarni «kommunistlar agressiyasidan saqlab qolish uchun» AQSh barcha choralarini ko'rishi haqida bayonot beradi. Shu tariqa, butun dunyo AQShning Vietnamdagi harbiy harakatlarda ishtirok etayotganidan xabar topadi.

1963 yilda AQSh hukumati Janubiy Vietnamda Zemga qarshi davlat to'ntarishiga hozirlik ko'rileyotgani haqida xabar topadi va to'ntarish tashkilotchilari bilan aloqa bog'laydi².

Oradan biroz vaqt o'tib, to'ntarish sodir etiladi va Ngo Din Zem qo'lga olinib, ertasi kuni akasi bilan birga qatl etiladi. Zemning o'rniga kelgan harbiy xunta siyosiy tarafдан juda kuchsiz ekani va mamlakatni boshqara olmasligi ma'lum bo'ladi. Buning natijasida partizanlar yanada ko'proq hududlarni o'z nazoratiga olishadi. AQSh Janubiy Vietnam armiyasiga yordam tariqasida tobora ko'proq harbiylarini kirta boshlaydi.

Janubiy Vietnamni qo'lga kiritib, mamlakatni yaxlit kommunistik davlatga aylantirishni reja qilgan shimolliklar ham qarab turishmaydi va 1964 yil janubga 24 minglik qo'shin kiritiladi. O'sha yili Tonkin ko'rfazida AQSh esminetsi bilan Shimoliy Vietnamga tegishli katerlar o'rtasida to'qnashuv bo'lib o'tadi. Qiruvchi samolyotlar yordamga kelgach, esminets katerlarni chekinishga majbur qiladi.

Bu orada 1964 yil noyabrda Lindon Jonson AQShning 36-prezidenti etib saylanadi (1963 yil Jon Kennedy o'ldirilgandi). AQSh Kongressi yangi saylanadigan prezidentga lozim bo'lganda Janubiy-sharqiy Osiyoda harbiy kuch ishlatalish huquqini beradi.

1965 yildan 1969 yilgacha AQSh harbiylari Janubiy Vietnamdagi partizan guruhlari va Shimoliy Vietnam qo'shinlariga qarshi ko'plab harbiy amaliyotlarda qatnashadi. Ularning aksariyati muavaffaqiyatsiz tugaydi. 1972 yil 30 mart kuni Shimoliy Vietnam janubda 125 minglik armiya bilan keng qamrovli harbiy harakatlarni boshlaydi. Janubiy Vietnam armiyasi AQSh harbiy aviatsiyasi yordamida bu hujumni bartaraf etadi. Aynan ana shu yirik harbiy amaliyotdagi muvaffaqiyatsizlik Shimoliy Vietnam rahbariyatiga AQSh taklif etgan tinchlik sulhi uchun muzokaralar boshlashga turtki bo'ladi.

Janubiy Vietnam tomoni bu urushda 250 ming nafar harbiy yo'qotadi. 1 million nafar harbiy yarador bo'ladi. Shimoliy Vietnam va uni qo'llagan janublik partizan guruhlardan bu urushda 1 million nafardan ortiq harbiy halok bo'ladi, tinch aholi vakillaridan esa jami 2 million nafar odam qurban bo'lgan.

Vietnam urushida AQShning 2,6 million nafar harbiysi ishtirok etib, ulardan 60 ming nafari halok bo'ladi. Halok bo'lgan harbiylarning 64 foizi 21 yoshgacha bo'lgan yigitlar edi. Shuningdek, mazkur urushda 303 ming nafar harbiy yarador bo'lgan.

1953 yildan 1975 yilgacha AQSh Vietnamdagi harbiy harakatlarda umumiy hisobda 168 milliard dollar mablag' sarflagan. Yana bir manbaga ko'ra, AQSh bu urushda 352 milliard dollar pul sarflagan, 9 ming samolyot va vertolyotlaridan ayrilgan.

XULOSA VA MUNOZARA

Urush oqibatida 58 ming amerikalik halok bo'ldi, 303 ming nafari yaralandi. Janubiy Vietnamda halok bo'lganlar soni taxminan 250 ming, yaralalanganlar soni 1 million atrofida. 1995 yili Vietnam hukumati bu urushda 1,1 million Shimoliy Vietnam harbiylari halok bo'lganini ma'lum qildi, mamlakatning har ikki qismida 2 million tinch aholining qoni to'kilgan.

¹ Millet A., tahrir. Vietnam urushining qisqacha tarixi. – Blumington. 1978 yil.

² Momyer V. Uchta urushda havo kuchlari (Ikkinchijiahon urushi, Koreya, Vietnam). – Yuv. 1978 yil.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Millet A., tahrir. Vietnam urushining qisqacha tarixi. – Blumington. 1978 yil.
2. Mishel S. Vietnam, La querre chimique et dieloque. – B. 1967 yil.
3. Momyer V. Uchta urushda havo kuchlari (Ikkinchı jahon urushi, Koreya, Vietnam). – Yuv. 1978 yil.
4. Pike D. Urush, Tinchlik va Vetkong. – Kembrij. 1969 yil.
5. Porter G. Tinchlik rad etildi: Qo`shma Shtatlar, Vietnam va Parij kelishuvlari. – Blumington. 1975 yil.